

“Hududiy elektr tarmoqlari” aksiyadorlik jamiyati barcha ovoz beruvchi oddiy aksiyalari Yagona aksiyadorining 5-sonli qarori

2025 yil “29” aprel

Toshkent shahri

“Hududiy elektr tarmoqlari” AJ tomonidan chiqarilgan va joylashtirilgan ovoz beruvchi oddiy aksiyalar 84 618 347 341 donani tashkil etadi.

“Hududiy elektr tarmoqlari” AJning barcha ovoz beruvchi aksiyalari O‘zbekiston Respublikasining Iqtisodiyot va moliya vazirligiga tegishli bo‘lib, ushbu vazirlik Jamiyatning barcha ovoz beruvchi oddiy aksiyalari Yagona aksiyadori hisoblanadi.

Ushbu qaror O‘zbekiston Respublikasi “Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to‘g‘risida”gi Qonunining 58-moddasiga asosan quyidagi masala yuzasidan qabul qilindi:

Kun tartibi:

1. Jamiyat ustavini yangi tahrirda tasdiqlash.

Kun tartibidagi masala yuzasidan:

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 11.03.2023-yildagi PQ-91-sonli qarorining 2-ilovasi, 03.05.2024-yildagi F-21-sonli farmoyishi hamda O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 18.06.2021-yildagi 382-sonli qarori va 15.08.2023-yildagi 527-F-/10-sonli farmoyishlari asosida “Hududiy elektr tarmoqlari” AJ va uning 3 ta hududiy filiallari (avval tizimdagi korxonalar) tomonidan jami 13 ta umumiy qiymati 51 214 410 200,64 so‘mlik aktivlarni 2021-2024-yillar mobaynida tegishli davlat tashkilotlaridan Jamiyat ustav fondidagi davlat ulushini oshirish hisobiga qabul qilib olingan.

Shunga ko‘ra, Jamiyat ustav fondini 51 214 410 300,0 so‘mga oshirish va qo‘shimcha aksiyalar chiqarilishi to‘g‘risida qarorni tasdiqlash to‘g‘risida Jamiyatning yagona aksiyadori tomonidan 27.02.2025 yildagi 2-son qarori qabul qilingan.

Jamiyatning qo‘shimcha aksiyalar chiqarilishi to‘g‘risida qarori O‘zbekiston Respublikasi Istiqbolli loyihalar milliy agentligi tomonidan 03.04.2025-yilda R0896-5-son bilan ro‘yxatga olingan. Shu emissiya doirasida chiqarilgan nominal qiymati 100,0 so‘m bo‘lgan barcha 512 144 103 dona oddiy aksiyalar 09.04.2025-yildagi qimmatli qog‘ozlarni joylashtirish to‘g‘risida 312/1102-sonli shartnomaga ko‘ra O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va Moliya vazirligi depo-hisob varag‘iga joylashtirildi.

Jamiyat ustav kapitali 8 464 424 484 600,0 so‘mdan 8 515 638 894 900,0 so‘mga oshgani inobatga olinib, Jamiyatning yangi tahrirdagi ustavini tasdiqlash taklif etildi.

O‘zbekiston Respublikasi “Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to‘g‘risida”gi Qonunining 59-moddasiga asosan, “Hududiy elektr tarmoqlari” AJning barcha ovoz beruvchi oddiy aksiyalari Yagona aksiyadori, **qaror qiladi:**

1. Jamiyatning yangi tahrirdagi ustavi Jamiyatning ustav kapitali 8 515 638 894 900,0 so‘m miqdorida belgilanib ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

2. “Hududiy elektr tarmoqlari” AJ boshqaruv raisi v.b. A.A. Askarovga yangi tahrirdagi ustavini davlat ro‘yxatidan o‘tkazish bo‘yicha tegishli ishlarni amalga oshirish vazifasi yuklatilsin.

**O‘zbekiston Respublikasi
Iqtisodiyot va moliya vazirining
o‘rinbosari**



I. Umrzakov